



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-iyun

VII-11-75-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 6-maydagи “Xalq deputatlari mahalliy Kengashi tomonidan Kengash tekshiruvi o‘tkazish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-173-V-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 6-maydagи “Xalq deputatlari mahalliy Kengashi tomonidan Kengash tekshiruvi o‘tkazish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-173-V-sonli qarori, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 3-iyundagi VII-13-77-7-0-K/25-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n birinchisessiyasi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 6-maydagи “Xalq deputatlari mahalliy Kengashi tomonidan Kengash tekshiruvi o‘tkazish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-173-V-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi tomonidan Kengash tekshiruvi o‘tkazish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi kotibiyati (M.Teshayev) va Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining Korrupsiya qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) bilan birga qaror bilan tasdiqlangan Uslubiy tavsiyaga qat’iy rioya qilinishini ta’minlasin.

4. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining barcha doimiy komissiyalari va deputatlariga:
 - kengash tekshiruvini o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tasdiqlangan tartibi asosida har chorakda kamida bir marta sohalar kesimida amaliy tekshiruvlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
 - tekshiruvlar natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mas’ul tashkilot va mansabdor shaxslarga aniqlik kirituvchi so‘rovlar yuborish, ularning javoblari asosida sessiyalarda ochiq muhokamalar tashkil etish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi kotibiyatiga:

- Kengash tekshiruvlarining yillik rejasini ishlab chiqish, har chorakda amalga oshirilgan tekshiruvlar monitoringini yuritish va ularning natijalarini umumlashtirib, Kengash sessiyalariga taqdim etib borish;

- Kengash tekshiruvlari natijalariga ko‘ra chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda doimiy komissiyalar bilan yaqin hamkorlikda ishlash;

- tekshiruv o‘tkazish tartibining mahalla, tuman bo‘limlari, tashkilotlar va muassasalarda keng tushuntirilishini ta’minlash, bu borada tegishli seminar va o‘quvlar tashkil qilish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining doimiy komissiya raislari zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 30-iyundagi
VII-11-75-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi tomonidan Kengash
tekshiruvi o‘tkazish**

TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi tomonidan Kengash tekshiruvi o‘tkazish tartibi (bundan buyon matnda “**Tartib**” deb yuritiladi) xalq deputatlari tuman Kengashi (bundan buyon matnda mahalliy “**Kengash**” deb yuritiladi) tomonidan Kengash tekshiruvi o‘tkazish tartib-taomillarini belgilaydi.

2. Tartib O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni va boshqa qonunchilik hujjalariiga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Kengash tekshiruvi- tegishli hududning xavfsizligiga, barqaror rivojlanish asoslariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, inson huquqlari va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar hamda voqealarni o‘rganish maqsadida o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan mahalliy Kengashning alohida tekshiruvi shaklidir.

4. Kengash tekshiruvi o‘tkazish qonuniylik, xolislik, ochiqlik va shaffoflik, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish prinsiplariga asoslanadi.

5. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv va tergov organlarining, sudlarning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarni, shuningdek ijro ishi yuritish hamda notarial ish yuritishning muayyan materiallarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq faoliyat Kengash tekshiruvining obekti bo‘lishi mumkin emas.

2-bob. Kengash tekshiruvini o‘tkazish tartib-taomillari

6. Kengash tekshiruvini o‘tkazish uchun asoslar:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari; ommaviy axborot vositalarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida e’lon qilingan ma’lumotlar;

nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma’lumotlari;
deputatlarning takliflari.

7. Quyidagilar mahalliy Kengashga Kengash tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risida taklif kiritishi, tavsiya berishi mumkin:

deputat (yoki deputatlar guruhi)- mahalliy Kengash deputatlarining kamida uchdan bir qismi qo‘llab-quvvatlangan taqdirda;

mahalliy Kengashning doimiy komissiyasi;

mahalliy Kengashdagi partiya guruhi;

viloyat, tuman, shahar hokimi;

Oliy Majlis palatalari; Vazirlar Mahkamasi.

8. Kengash tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi taklif va tavsiyalar asoslantirilgan holda yozma shaklda kiritiladi. Bunda mahalliy Kengash kotibiyati deputat, mahalliy Kengashning doimiy komissiyasi, partiya guruhiga Kengash tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi taklif bilan bog‘liq zarur materiallar va hujjatlar loyihalari tayyorlanishiga ko‘maklashadi.

9. Mahalliy Kengash Kengash tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risida taklif yoki tavsiyani ko‘rib chiqib, deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

Kengash tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifni yoki tavsiyani ma’qullash; Kengash tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifni yoki tavsiyani takomiliga yetkazish uchun tashabbuskorga qaytarish;

Kengash tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risidagi taklifni yoki tavsiyani rad etish.

10. Kengash tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda unda Kengash tekshiruvi o‘tkazish uchun asoslar hamda Kengash tekshiruvining maqsad va vazifalari nazarda tutiladi.

11. Mahalliy Kengash Kengash tekshiruvini o‘tkazish uchun Kengash deputatlari orasidan Kengash tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha komissiya tashkil qiladi va uning tarkibini tasdiqlaydi.

12. Komissiya, qoida tariqasida, kamida 7 nafar deputatdan iborat bo‘ladi. Komissiya rais, kotib va a’zolardan iborat bo‘ladi. Kengash tekshiruvi natijalaridan manfaatdor bo‘lgan deputat komissiya tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

13. Zarur hollarda komissiya ishiga quyidagilar jalg qilinishi mumkin: ilmiy doiralar vakillari, ekspert va mutaxassislar;

huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari vakillari; nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari.

14. Komissiya Kengash tekshiruvini o‘tkazishda quyidagilarga haqli:

davlat organlari va tashkilotlarining vakillarini, mutaxassislarni, ekspertlarni komissiya ishiga jalg etishga;

davlat organlari va tashkilotlaridan, jismoniy va yuridik shaxslardan zarur ma'lumotlarni so'rab olishga;

davlat organlari va tashkilotlarining, nodavlat tashkilotlarning mansabdon shaxslarini, shuningdek fuqarolarni tushuntirishlar berish uchun taklif qilishga; voqeа va hodisalarni joyiga chiqib o'r ganishga.

Komissiya qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

15. Komissiya o'z faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjalari qat'iy rioya qilishi, davlat organlari va tashkilotlariga qonunchilikda belgilangan vazifalarini amalga oshirishga to'sqinlik qilmasligi, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishi shart.

16. Mahalliy davlat hokimiyati organlari, mansabdon shaxslar va tashkilotlarning rahbarlari komissiya ishiga ko'maklashishlari, zarur ma'lumotlarni taqdim etishlari va chaqirilganda hozir bo'lishlari shart. Kengash tekshiruvini o'tkazishga to'sqinlik qilish, bila turib yolg'on ma'lumot berish yoki ma'lumot berishdan bo'yin tov lash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

17. Komissiya ish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi.

18. Komissiya majlislari bayonna ma bilan rasmiylashtiriladi. Har bir tadbir (tekshiruv, so'rov, tashrif) natijalariga ko'ra hisobotlar yoki ma'lumotnomalar tayyorlanadi.

19. Komissiya tomonidan tekshiruv yakunlari bo'yicha yakuniy xulosa tuziladi. Xulosada quyidagilar nazarda tutiladi:

tekshiruv predmetining tavsifi;

hujjalalar yoki boshqa vositalar bilan tasdiqlangan faktlar;

bo'lib o'tgan voqeа, hodisa yoki harakatda (harakatsizlikda) qonunchilik buzilishi holati mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risidagi xulosalar;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar;

normativ-huquqiy yoki boshqa meyoriy hujjalarga o'zgartirish yoxud qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar;

tegishli shaxslarga nisbatan intizomiy yoki boshqa choralar ko'rish bo'yicha takliflar.

20. Xulosa Komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi va mahalliy Kengashga taqdim etiladi. Komissiyaning a'zosi umumiy xulosaga yoki unda nazarda tutilgan ayrim masalalarga qo'shilmasa, uning e'tirozlari umumiy xulosaga ilova qilinadi.

21. Mahalliy Kengash komissiyaning Kengash tekshiruvi yakunlari bo'yicha xulosasini navbatdagi sessiyada ko'rib chiqadi.

22. Sessiya mahalliy Kengash reglamentida belgilangan umumiy tartib asosida o'tkaziladi.

23. Mahalliy Kengash xulosani ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha qaror qabul qiladi. Mahalliy Kengash qarori qabul qilingan kundan boshlab o'n kun ichida tegishli mansabdor shaxsga yuboriladi.

24. Mahalliy Kengash Kengash tekshiruvi yakunlari bo'yicha:

mansabdor shaxsni javobgarlikka tortish, ularni lavozimidan ozod etish to'g'risida tegishli davlat organlariga, Vazirlar Mahkamasi yoki Oliy Majlis Senatiga taklif va tavsiyalar kiritishi;

tegishli davlat organlariga hamda tashkilotlariga qonunchilik hujjatlarining, davlat dasturlarining ijrosi, o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarning amalga oshirilishi samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish yuzasidan taklif va tavsiyalar kiritishi;

Kengash tekshiruvi yakunlari bo'yicha tayyorlangan materiallarni vakolatlari davlat organlariga o'z vakolatlariga muvofiq ko'rib chiqish uchun yuborishi;

fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonun hujjatlarini buzishning boshqa hollari ma'lum bo'lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo'yish choralarini ko'rish talabi bilan tegishli davlat organlariga hamda tashkilotlariga hamda mansabdor shaxslarga murojaat qilishi;

Kengash tekshiruvi natijalarini e'lon qilishi mumkin.

25. Kengash tekshiruvi natijalariga ko'ra qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan nazorat mahalliy Kengashning tegishli doimiy komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

26. Mas'ul mansabdor shaxslar mahalliy Kengash qarorining ijro etilishi bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida mahalliy Kengash qarorida belgilangan muddatda axborot kiritib boradi.

27. Kengash tekshiruvi natijalariga ko'ra qabul qilingan qarorning ijro etilishi holati bo'yicha amalga oshirilgan ishlar har oyda kamida bir marta mahalliy Kengashning tegishli doimiy komissiyasida muhokama qilinadi.

3-bob. Yakuniy qoidalar

28. Kengash tekshiruvi davomida olingan ma'lumotlar qonun bilan qo'riqlanadigan axborot turiga taalluqli bo'lsa, Komissiya a'zolari uning maxfiyligini saqlashi shart. Bunday axborotni oshkor qilish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

29. Kengash tekshiruvi yakunlari bo'yicha tayyorlangan xulosadagi materiallarning qonunchilikka muvofiqligi, unda ko'rsatilayotgan ma'lumotlarning asosliligi uchun komissiya a'zolari shaxsan javobgar hisoblanadi.

30. Tartib buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlik choralar qo'llanilishi mumkin.

31. Tartibga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, uni o'z kuchini yo'qotgan deb topish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori asosida amalga oshiriladi.

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025 yil 6 maydagi "Xalq deputatlari mahalliy Kengashi tomonidan Kengash tekshiruvi o'tkazish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi KQ-173-V-sonli qaroriga asosan tayyorlangan.